

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE HERITAGE OF THE ANCESTORS IN THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM IN YOUTH

Akmal Ganiyev

Lecturer

Tashkent city "Temurbeklar maktabi"

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: homeland, patriot, patriotism, heritage, idea, Turon

Received: 05.01.25

Accepted: 07.01.25

Published: 09.01.25

Abstract: The article reveals the role and importance of the concept of homeland and views on patriotism in the scientific and creative heritage of our ancestors in the development of the young generation.

AJDODLAR MEROSINING YOSHLARDA VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Akmal G'aniyev

o'qituvchi

Toshkent shahar "Temurbeklar maktabi"

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvar, vatanparvarlik, meros, g'oya, Turon.

Annotatsiya: Maqolada yosh avlod kamolotida ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosidagi vatan tushinchasi va vatanparvarlik borasidagi qarashlarining o'rni hamda ahamiyati o'chib berilgan.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В ФОРМИРОВАНИИ У МОЛОДЕЖИ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА

Акмаль Ганиев

преподаватель

Ташкентский городской «Темурбеклар Мактаби»

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Родина, патриот, патриотизм, наследия, идея, Туран

Аннотация: В статье раскрывается роль и значение патриотических взглядов и понимания Родины в научно-творческом

Bugungi kunda yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanini chuqr singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish ta’lim va tarbiyaning ustuvor maqsadlaridan biridir.

O‘sib kelayotgan yoshlarni, ya’ni Vatanimizning bo‘lg‘usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — davr talabi. Vatanparvarlik insonning o‘z oilasiga, avlod-ajdodlarining ornomusiga chuqr ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o‘z so‘ziga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog‘idan o‘z xalqiga, uning an‘analariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo‘lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergen edi.

Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. **Vatanparvarlik** barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zları yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanparvarlik tushinchasini his qilish uchun avvalo Vatan tushinchasi chuqr anglash zarur.

Vatan – insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan joydir, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini yuqori ko‘tarish – muqaddas islom dini va azaliy qadriyatlarimizning ajralmas bir bo‘lagidir. Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo‘lida dushmanqa qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmuddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliyqahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ilm-fan borasidagi ulkan ilmiy meros qoldirgan allomalarimiz kishilarning kamoloti va unda vatanparlik hissi masalasiga alohida e’tibor bergenlar.

Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyat, olamning abadiyligi, vatanparvarlik haqidagi g‘oyalari, yosh avlodni vatanparvarlik, o‘z vataniga va xalqiga sidqi dildan hurmat ehtirom ruhida

tarbiyalashda ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qiladi. U – “Ma’lum xalq va butun insoniyat to‘plab kelgan ma’naviy-milliy merosi, “ruhlar”i, ya’ni shaxslarning ma’naviyati, ongi milliyashib, bir-biri bilan qo‘silib boradi[1]” – degan edi.

Beruniy qarashi bo‘yicha, “har bir xalq qandaydir fan yoki tajribaning rivojlanganligi bilan farqlanadi [2]”. U “Tarixul Hind”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida boshqa xalqlar vakillarining u yoki bu ilmiy sohalardagi muvaffaqiyatlarini ochiq ko‘ngil bilan tahlil qiladi va boshqa millat, xalqlarni kamsitmaydigan fikrlar asosida ularning ham ongida o‘ziga xos milliylik shakllanib borishini ko‘rsatadi. Beruniy olg‘a surgan vatanparvarlik g‘oyalari, ma’naviy qadriyatlar xususidagi fikr o‘gitlari mustaqillik davrida yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Imom Muhammad G‘azzoliy shunday degan: “Vatanning ham haqlari bo‘ladi. Ularning birinchisi shu Vatanda yashaganda tinch-xotirjam, shukrona qilib yashash haqqidir”. Shuningdek, Vatandan ketganda uni sog‘inish, Vatan kamsitilganda g‘azablanish, Vatanga hujum qilinganda uni himoya qilish ham Vatanning shu yurtda tug‘ilib-o‘sganlar zimmasidagi haqqidir.

Buyuk alloma Alisher Navoiy avvalo, butun kuchini yurtda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga qaratdi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, hazrat Navoiy esa hukumatda bosh vazir vazifasini egallab turgan davrda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Shoир vaqf ishlarini tartibga soldi. Shuningdek, savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirish, qishloqlarda dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat qaratdi va bunga erishdi. O‘sha davrda shaharlar, xusan, Hiroт kun sayin obod bo‘la boshladi. Tarixchi Xondamirning qaydiga ko‘ra shular ma’lumki, 1480-yillar davomida Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir nechta madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 tadan hammom va ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta’mirlattirgan. Ular orasida Hirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xalosiya” xonaqohi, “Shifoiya” tibgohi, Marvdagi “Xusrafiya” madrasasi, Mashhaddagi “Dorul-huffoz” xayriya binosini alohida ta’kidlash mumkin. Shuningdek, shoир tomonidan Hirotning Injil anhori bo‘yida 0,25 sotixlik (30 jerib) hovli qurdirilgan. U yerda 100 kishiga dasturxon yozish imkonibor edi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, shoир Hirotda va butun Xuroson mamlakatida barpo ettirgan inshootlar soni 300 dan ortiq bo‘lgani ma’lum.

XIX asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar. Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallahga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o‘rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga

e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas..... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz [3]".

Abdulla Avloniy,u qatag'on yillari paytida yashagan bo'lsa ham so'z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy,u o'zining bolalarni o'qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan.Uning bolalarga Chet tilini o'rgatish, savod chiqarish va boshqa o'qitishga oid qilgan ishlari taqsimga loyiq. Fitrat she'riyatida ozodlik, hurlikka intilish o'z aksini topgan. "Hurriyat" gazetasi e'lon qilingan "Yurt qayg'usi" nomli she'rlari vatanparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan edi. Istiqlol g'oyalarni baralla kuylaydi. Sochmalarda yurtni mungli ona qiyofasida tasvirlab, Vatanga Onam deb murojat qiladi:

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir? [3]

Fitrat lirkasida Turkiston dunyosi, birligi, ozodlik, hurriyat g'oyalari ilgari surilgan. Shoir sochmalarida ham: "Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?" [3] – deya xitob qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniyma'naviysaviyatini yuksaltirishga chorlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 1993. – B. 162.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tarixul Hind. Tanlangan asarlar. – T., 1997. – 20-40 b.
3. Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. - T., Ma'naviyat. 2000 – 31-41 b.
4. Alisher Navoiy "Hayratul abror" G'afur G'ulom nomidagi nashroyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2006 yil 254-bet
5. Mirziyoyev Sh.M. Konstitusiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. – № 247 (6741). – 2017. –7 dek.